



BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDOSHUVLAR

Panjiyeva Muattar XXX

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Choriyeva Diyora Muhiddinovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfi ona tili fanini o‘qitishda innovatsion yondoshuvlarning roli, ularning samaradorligi, o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsiya, dars samaradorligi, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash.

ABSTRACT

This article highlights the role of innovative approaches in teaching the subject of the mother tongue in primary school, their effectiveness, and their importance in increasing student activity.

Keywords: Mother tongue, primary education, innovation, lesson effectiveness, interactive methods, independent thinking.

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается роль инновационных подходов в преподавании родного языка в начальной школе, их эффективность и важность для повышения вовлеченности учащихся.

Ключевые слова: родной язык, начальное образование, инновации, эффективность урока, интерактивные методы, самостоятельное мышление.

Krish. Zamonaviy ta‘lim jarayoni o‘qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashishni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichi bolaning fikrlash, o‘rganish, til bilan ishlash, ifoda etish kabi ko‘nikmalari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tili fanini innovatsion yondoshuvlar asosida o‘qitish dars





samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, va ular uchun darsni qiziqarli hamda ta'sirchan qiladi. Innovatsion yondashuvlar, an'anaviy dars shakllaridan farqli ravishda, o'quvchilarga bilim olish jarayonida faollik ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsiya: yangi yoki takomillashgan metod, texnologiya yoki pedagogik yondashuvlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi.

Innovatsion dars turlari: O'quvchilarga ilmiy izlanish, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish imkonini beradigan dars shakllari. Masalan: interfaol darslar, kooperativ o'qish, projektiv asosida o'qitish.

Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarni darsga faol jalb qilish, ularni o'z fikrini erkin bayon etishga, mustaqil fikrlashga, savol berishga undash mumkin. Darslarda interaktiv usullar — “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Klaster”, “Insert”, “Savol-javob charxi” kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarda mavzuni tez va oson anglab olishlariga yordam beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonlarida o'qitishning zamonaviy metodlaridan unumli foydalanilmoqda. Hozir o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara bermoqda. Ushbu metodlarni qo'llashda o'qituvchi har bir darsning ta'limiy, tarbiyaviy, uslubiy jihatidan kelib chiqib tanlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metodlarni qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradigan, ularning bilimni kengaytiradigan, mantiqiy fikirlashini o'stiradigan ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Buni o'rgatish uchun o'qituvchi, avvalo, o'zi bilimli vadono bo'lishi, o'rgatayotgan narsasini puxta o'rganishi kerak. Yosh avlod bizning, ona Vatanimizning kelajagidir. Ona Vatanimizning kelajagi, yuksalishi yosh avlodning qo'lidadir. Har tomonlama barkamol, bilimdon, komil, yetuk shaxsni tarbiyalash bizning, barchamizning vazifamizdir.

“Interfaol” so'zi ingliz tilida “interact” so'zidan olingan bo'lib, “inter”- o'zaro ikki taraflama, “act”-harakat qilmoq degan ma'nolarni anglatadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashga, mustaqil fikirlashga, dunyoqarashini kengaytirishga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan interfaol metodlar quyidagilar hisoblanadi: “Ajil”(amaliy, jamoaviy, ijodiy loyihalar)strategiyasi, “Baliq skeleti” grafik organayzeri, “Bahs-munozara” strategiyasi, “Bumerang” strategiyasi, “Venn





diagrammasi” grafik organayzeri, “Ajurli arra ” strategiyasi, “Yagona davra” strategiyasi, “Debat” metodi va boshqalar.

“Ajurli arra” (fransuzcha “ajour”-bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, tomoni ochiq)strategiyasi o‘quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta necha qisimlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod qo‘llanilganda o‘quvchi (talaba)lar tayyor matnlar bilan ishlaydi.

Dars jarayonida ushbu strategiyadan foydalanish quyidagicha boradi:

- 1.o‘qituvchi o‘quvchi (talaba)larni “Ajurli arra” strategiyasi mohiyati bilan tanishtiradi;
- 2.Talabalarni guruhlariga ajratadi;
- 3.o‘zlashtiriladigan materiallar bir nechta qismlarga ajratilgan holda alohida qo‘g‘ozlarda qayd qilinadi.
4. Matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlariga tarqatiladi;
5. Guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajaradi;
6. Topshiriq bajarilgach, har bir guruhdan matnni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi (talaba) ajratib olinib, ulardan ekspert guruhi shakllantiriladi;
7. Ekspert guruhi a‘zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqalarga yetkazish rejasini tuzadi;
8. Ekspert guruhi a‘zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqa guruhlariga ham o‘rgatadi.

Masalan, ona tili darslarida “Rolli o‘yinlar” orqali so‘z turkumlari, gap bo‘laklari, tovush va harflarni o‘rganishda ko‘rgazmali va esda qoladigan shakllarda tushuntirish mumkin. Shuningdek, animatsion videolar, multimediali taqdimotlar, interfaol doskalar orqali darslarni yanada jonli va qiziqarli o‘tkazish imkoniyati yaratiladi.Izoh: “Tahlilchilar” ning asosiy vazifasi savol yuzasidan muhokamani tashkil etish, “Kuzatuvchilar”ning asosiy vazifasi esa 1-guruh (“Tahlilchilar”) faoliyatini kuzatib baholashdan iborat.

“AJIL” (“AMALIY JAMOAVIY IJODIY LOYIHALAR”) STRATEGIYASI

Texnologiya o‘quvchi (talaba)larda ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to‘g‘risidagi tushunchani hosil qilishga ko‘maklashishini ta‘minlaydi.

Mazkur texnologiyani o‘quv jarayonida “Jamoaviy ijodiy ishlar” strategiyasi asosida amalga oshirish o‘quvchi (talaba)larning ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni samarali o‘zlashtirishga yo‘naltirish maqsadida muhimdir.

O‘qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:





O'quvchi texnologiya asosida bajaradigan topshiriqni tushuntirib beradi, uning amalga oshirish tartibi va natijani baholash mezonlarini tushuntiradi; O'quvchilarga topshiriqni bajarish jarayonidagi ish rejasini tuzishni aytadi; O'qituvchi "Aqliy hujum" metodi yordamida har bir o'quvchi (talaba)ning topshiriq borasidagi fikrlarini og'zaki taxtasi yoki vatman qog'ozi orqali yozib boradi; Birgalikdagi muhokamadan so'ng o'quvchi (talaba)lar aniq loyiha-rejani tasdiqlashadi (uni "Og'zaki jurnal" deb nomlab, har bir sahifasiga alohida nom qo'yish ham mumkin). Shundan so'ng o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlarda ishlaydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi.
2. O'qituvchi kichik guruhlariga "Og'zaki jurnal" ning har bir sahifasi bilan tanishib chiqib, aniq sahifaga mazmuni muvofiq tuzilgan topshiriq va uning mohiyatini erishitma doir topshiriqni beradi.
3. Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi (maksimal vaqt 10 daqiqa).
4. Kichik guruhlar topshiriqni bajarish ustida ishlaydi (bu vaqtda kichik guruhlar o'zlari tanlagan sahifa mazmunini yoritish usullari, shakllari, ifodasi va uni taqdim qilish yo'llarini aniqlangan holda topshiriqni bajaradi).
5. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, guruhlar o'z ezmolari (ishlari)ni navbatma-navbat namoyish etadi (ezmalar namoyishida imkon qadar barcha o'quvchilar faol ishtirok etishlari talab qilinadi).
6. Butun jamoa o'qituvchi rahbarligida kichik guruhlarining chiqishlarini muhokama qiladi (muhokamada qulaylik uchun nutq va kamchiliklar, guruh bilan ishlash har bir o'quvchi (talaba) o'zlashtirgan ko'nikmalar tahlil qilinadi).

Innovatsion yondoshuvlar o'quvchilarda o'z fikrini ifoda qilish, matn bilan ishlash, savol tuzish va yozma ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa tilni nafaqat o'qib anglash, balki faol foydalanishga yo'naltiradi.

Shuningdek, raqamli resurslar — onlayn testlar, interaktiv mashqlar, elektron darsliklar orqali o'quvchilarning bilimni mustahkamlash mumkin. Bu o'qituvchiga ham monitoring jarayonini yengillashtiradi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda innovatsion yondashuv o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili fanini o'qitishda innovatsion yondoshuvlar o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, darslarni mazmunli va samarali qiladi. Har bir pedagog bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalansa, o'quvchilar til boyligi,





fikrlash qobiliyati va savodxonligi yuksaladi. Interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, o'yinli mashg'ulotlar va loyiha asosidagi ta'lim orqali o'quvchilar ona tili faniga bo'lgan qiziqish bilan qatnashadilar, o'rganilgan bilimlarni hayotda qo'llay olish malakalarini egallaydilar. Shu bilan birga, ular tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va aniq fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shunday ekan, har bir zamonaviy pedagog o'z faoliyatida innovatsion yondoshuvlarni to'g'ri va samarali qo'llashni maqsad qilib qo'ysa, bu nafaqat o'quvchilar savodxonligini, balki umuman olganda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi avlodning har tomonlama yetuk, bilimli va mustaqil shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Qosimov A.A. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi". Toshkent, 2023.
2. Karimova D.X. "Ona tili o'qitish metodikasi". Samarqand, 2022.
3. Zaynutdinova M.B. "Interaktiv metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish". Buxoro, 2021.
4. www.ziyonet.uz, www.eduportal.uz
5. Panjiyeva M, Ergasheva O "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi" o'quv qo'llanma. Termiz 2014 148-b

